

**SHUKUR XOLMIRZAYEVNING O‘ZBEKLAR HIKOYASIDAGI
DIALEKTLAR*****Qurbonova Ferangiz****Buxoro xalqaro universiteti talabasi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Shukur Xolmirzayevning “O‘zbeklar” hikoyasida qo‘llangan dialektal birliklar lingvistik va badiiy jihatdan tahlil qilinadi. Asarda uchraydigan dialektizmlar leksik, fonetik va sintaktik qatlamlar kesimida o‘rganilib, ularning nutqiy ifodadagi o‘rni aniqlanadi. Tadqiqot jarayonida yozuvchining xalq og‘zaki nutqiga xos unsurlardan mohirona foydalangani, bu orqali obrazlar tabiiyligi, milliy kolorit va badiiy tasvir kuchaytirilgani asoslab beriladi. Shuningdek, dialektal birliklarning matn mazmunini boyitish, qahramonlarning ijtimoiy kelib chiqishi va ruhiy holatini ochib berishdagi ahamiyati yoritiladi. Maqola natijalari badiiy matnlarda dialektlardan foydalanishning stilistik va pragmatik xususiyatlarini tushunishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: dialektizm, leksik birlik, fonetik xususiyat, sintaktik qurilish, badiiy matn, milliy kolorit, nutqiy ifoda, stilistika.

Аннотация. В данной статье анализируются диалектные единицы, использованные в рассказе «Узбеки» узбекского писателя Shukur Xolmirzayev. Диалектизмы рассматриваются на лексическом, фонетическом и синтаксическом уровнях, а также определяется их роль в художественной структуре произведения. В ходе исследования выявляется мастерство автора в использовании элементов народной разговорной речи, что способствует созданию национального колорита, естественности образов и усилению художественной выразительности текста. Кроме того, раскрывается значение диалектных единиц в передаче социального положения персонажей, их внутреннего мира и особенностей мышления. Результаты исследования позволяют глубже понять стилистические и прагматические функции диалектов в художественной литературе.

Ключевые слова: диалектизм, лексика, фонетика, синтаксис, художественный текст, национальный колорит, разговорная речь, стилстика.

Annotation .This article analyzes the dialectal units used in the short story “Uzbeks” by the Uzbek writer Shukur Xolmirzayev from linguistic and stylistic perspectives. The study examines dialectisms at lexical, phonetic, and syntactic levels and identifies their role in the artistic structure of the text. The research highlights the author’s skillful use of elements of folk speech, which enhances the naturalness of characters, strengthens national color, and increases the expressive power of the narrative. Furthermore, the paper explores how dialectal units contribute to revealing

the social background, worldview, and psychological state of the characters. The findings demonstrate the stylistic and pragmatic significance of dialects in enriching literary texts.

Keywords: dialectism, lexical units, phonetic features, syntactic structure, literary text, national color, speech expression, stylistics.

Kirish: O‘zbek adabiyotida xalq tilining boy va rang-barang imkoniyatlarini badiiy asarlarda aks ettirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, dialektal unsurlar yozuvchiga qahramonlarning milliy qiyofasi, yashash muhiti, dunyoqarashi va nutqiy xususiyatlarini tabiiy hamda ishonarli tarzda tasvirlash imkonini beradi. Sheva va lahja birliklari badiiy matnning obrazlilik va ta’sirchanligini kuchaytirib, asarning milliy ruhini yanada yorqin namoyon etadi. Mazkur maqolada hikoyadagi dialektal unsurlar, ularning lingvistik xususiyatlari hamda badiiy-estetik vazifalari tahlil qilinadi. Hikoyada oddiy o‘zbek insonlarining hayoti, turmush tarzi, dunyoqarashi va o‘zaro munosabatlari realistik tasvirlangan bo‘lib, qahramonlar nutqida qo‘llangan shevaga xos birliklar asar g‘oyasini ochishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Turli xarakterdagi obrazlar orqali o‘zbek xalqiga xos mehmondo‘stlik, samimiylilik, kamtarlik, sodda hayotga yaqinlik kabi ijobiy fazilatlar bilan bir qatorda ayrim ijtimoiy va ma’naviy kamchiliklar ham yoritib beriladi. Shu jihatdan, hikoyadagi dialektal unsurlarni o‘rganish nafaqat asarning badiiy qimmatini aniqlash, balki xalq tilining adabiy til taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyatini belgilashda ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Shukur Xolmirzayevning “O‘zbeklar” hikoyasi bugungi kunda adabiyotshunoslar tomonidan turli jihatlaridan tadqiq etilib, uning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari yuzasidan qator ilmiy maqolalar yaratilgan. Biroq hikoyadagi dialektal birliklar, shevaga xos so‘zlar va ularning semantik hamda uslubiy xususiyatlari alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o‘rganilmagan. Jumladan, Ibragimova Dilovar Anvar qizi va Sultonqulova Feruzaning “Shukur Xolmirzayevning “O‘zbeklar” hikoyasida inson va davr muammosi”¹ nomli maqolasida asarning g‘oyaviy mazmuni tahlil qilinib, unda inson taqdiri, davr muammolari hamda bugungi tinch va farovon hayotning qadriga yetish g‘oyalari yoritilgan. Mualliflar hikoya orqali o‘quvchini bugungi kun uchun shukronalik hissiga chorlaydigan badiiy qarashlarni ochib berishga harakat qilganlar. Shuningdek, Bo‘ronova Maftuna Shaymardin qizining “Shukur Xolmirzayevning “O‘zbeklar” hikoyasida milliy xarakter va insoniy qadriyatlar talqini” nomli maqolasida asardagi milliy xarakter masalasi, o‘zbek xalqiga xos fazilatlar hamda insoniy qadriyatlarning badiiy ifodasi tahlil etilgan. Tadqiqotda qahramonlar xarakteri va ularning ma’naviy-axloqiy qiyofasi markaziy

¹ Dilovar Anvar qizi va Sultonqulova Feruzaning “Shukur Xolmirzayevning “O‘zbeklar” hikoyasida inson va davr muammosi”. New Renaissance International Sciences Journal, 2023

o‘rin egallaydi. Hoshimjon Ahmedov esa “Shukur Xolmirzayevning “O‘zbeklar” hikoyasida xronotop masalasi”² nomli maqolasida asardagi makon va zamon munosabatlarini o‘rganib, yozuvchining voqealar rivojini xronotop vositasida mahorat bilan tasvirlaganini ta’kidlaydi. Tadqiqotda hikoyaning syujet qurilishi va badiiy vaqt-makon tizimining o‘ziga xos jihatlari yoritilgan. Ko‘rinadiki, mavjud tadqiqotlarda hikoyaning g‘oyaviy mazmuni, milliy xarakterlar talqini, insoniy qadriyatlar va xronotop masalalari atroflicha tahlil qilingan. Biroq asarda qo‘llangan dialektal unsurlar, shevaga xos leksik birliklar, ularning ma’no qirralari hamda badiiy-estetik vazifalari maxsus lingvistik tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o‘rganilmagan. Mazkur maqola aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, hikoyadagi dialektal birliklarning qo‘llanish xususiyatlari va badiiy matndagi funksional ahamiyatini tahlil qilishni maqsad qiladi.

Hikoyadagi dialektlar:

„Qiyoy“ - bu ayrim hududlarda (masalan janubiy viloyatlar, Surxon tomonida) ishlatiladigan „o‘t –o‘lan“, „ yovvoyi o‘t“ ma’nosida qo‘llaniladi .

Mana shu o‘zimizning Surxon vohasiga o‘xshab ketadigan joylar ekan: har qadamda qiyoylar o‘sgan .

„ Guvala“ - loy yoki tuproqdan qilinadigan qurilish materiali bo‘lib, ya’ni devor qurishda ishlatiladigan kesak loy bo‘lagi.

Tomlari bari loysuvoq, devorlari guvala .

„ Suqatoy“ – bu shevaga xos so‘z bo‘lib ,ko‘proq janubiy hududlarda uchraydi. Ma’nosi kichkina bola , yosh go‘dak yoki erkalanib aytiladigan bola .

Men O‘rmon akani hozir qitmir, suqatoy qilib ta’ riflayotganga o‘xshayman .

„Soyapar“ – nozik , erka quyoshda ishlashga o‘rganmagan , faqat soyada yuradigan qiz.

Bitta go‘zal, nozik qiz ipakdek barmoqlari chanoqlarga tilinib, qoni chiqib, doka bilan bog‘lab olib, endi zo‘rg‘a terayotganini ko‘rsangiz : „E, shaharlik oyimqiz ! Soyapar-da , soyapar!“.

„Kurskom“ - bu yerda „kurskomimiz “-og‘zaki shevaga yaqin shakl bo‘lib , aslida „kursdoshimiz “ yoki odamimi, „bir kursda o‘qiydigan odamimiz“ degan ma’noni bildiradi.

Hikoyada keltirilgan :

Novcha ,oriq yigit. Uch yil universitetga kirolmagan. O‘rmon degan bir kurskomimiz bor edi .

Shukur xolmirzayevning „O‘zbeklar “ hikoyasi dialektal birliklardan mahorat bilan foydalanilgan asarlardan biridir. Hikoyadagi dialektal so‘zlar ,xususan “soypar”, “qiyoy”, “guvala”, “suqatoy” , “kurskom” nafaqat hududiy leksik birlik

² Proceedings of Global Technovation International Multidisciplinary Scientific Conference, 2021.

sifatida, balki qahramonlarning xarakterini, ularning ichki dunyosi va ijtimoiy holatini jonli tasvirlash vositasi sifatida ishlatilgan . Shu bilan birga, dialektlar yordamida yozuvchi o'quvchini voqea sodir bo'layotgan muhitga yaqinlashtiradi , mahalliy hayot va milliy ruhiyatni jonli ifodalaydi . Natijada „O'zbeklar“ hikoyasi nafaqat mazmuni, balki til va uslubi jihatidan ham o'zbek adabiyotida ahamiyatli o'rin egallaydi .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.To'ychiboyev B, Xasanov B . O'zbek dialektologiyasi . Toshkent :Abdulla Qodiriy nomidagi xalq, merosi nashriyoti ,2004.
2. Ashurboyev S . O'zbek dialektologiyasi .Toshkent , Navro'z ,2016.
3. Yoqub Saidov . O'zbek dialektologiyasi „Durdona “ nashriyoti 2021.
4. Shukur Xolmirzayev . Saylanma asarlar .-Toshkent : Sharq nashriyoti , -2006.
5. Shukur Xolmirzayev . Hikoyalar to'plami .-Toshkent : G'afur G'ulom nashriyoti ,1987.